

2018 yilning III choragida iqtisodiy islohotlarning borishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognoz ko'rsatkichlari

15.09.2018

Hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagilarni tashkil etishi kutilmoqda. Xususan, 2018 yilning III choragida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'ati 104,5 foizni, xalq istemol tovarlari ishlab chiqarish o'sish ko'rsatkichi 105,7 foizga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish natura ko'rinishida o'sish sur'ati: un ishlab chiqarish 100,0 foizni, omixta yem 100,3 foizni, non va non mahsulotlari ishlab chiqarish 113,4 foizni hamda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 100 foizga teng bo'lishi kutilmoqda.

«Surxondaryo don mahsulotlari» AJ kunlik quvvati 300 tonnalik yangi tegirmon sexining texnologik uskunalari Turkiyaning «Erkan Makina» kompaniyasi tomonidan to'liq keltirildi, montaj ishlari olib borilmoqda. Joriy yilning oktabr oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

«Dunyo-M» AJ kunlik quvvati 300 tonnalik tegirmon sexining texnologik uskunalari Turkiya kompaniyasi tomonidan to'liq keltirilgan. Demontaj ishlari yakunlanib, montaj ishlari olib borilmoqda. Joriy yilning sentabr oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

«Bekobod un zavodi» kunlik quvvati 50 tonnalik tegirmon sexining texnologik uskunalari Ukrainaning «Mogilev-Podolskiy» kompaniyasi tomonidan to'liq keltirilgan. Montaj ishlari olib borilmoqda. Joriy yilning oktabr oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

«Samarqand don mahsulotlari» AJ kunlik quvvati 250 tonnalik tegirmon sexining texnologik uskunalari Turkiyaning «Alapala» kompaniyasi tomonidan keltirilishi boshlangan. Montaj ishlari oktabr oyida boshlanadi.


«Bog'dod don mahsulotlari» AJga kunlik quvvati 110 tonnalik omixta yem sexi uchun Turkiyaning «Alapala» kompaniyasi jihozlari keltirilgan. Montaj ishlari olib borilmoqda. Loyihani joriy yilning sentabr oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi don korxonalari tomonidan Xitoyning «Uzbek China trade» kompaniyasi texnologiyalari asosida 4 ta guruch sexi joriy yilning noyabr oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan.


2018 yil III choragida kutilayotgan ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	O‘sinh sur‘ati %
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	104,5
Xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish	105,7
Un	100,0
Omuxta yem	100,3
Non va non mahsulotlari	113,4
Makaron mahsulotlari	110,0

2014-2018 yillarda non va non mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2014-2018 yillarda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



2014-2018 yillarda omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

